

**“AI HEALTH” Hakaton-2026 respublika tanlovini o‘tkazish
tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom “AI HEALTH” OTMlararo hakatonini (keyingi o‘rinlarda — Hakaton) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Hakaton sun‘iy intellekt texnologiyalari asosida sog‘liqni saqlash sohasida innovatsion yechimlarni ishlab chiqish maqsadida o‘tkaziladi.

1.3. Hakaton ikki bosqichda tashkil etiladi:

I bosqich — OTM ichki saralash bosqichi;

II bosqich — Festival doirasidagi respublika final bosqichi.

1.4. Hakaton respublika hududidagi davlat va nodavlat oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkaziladi.

1.5. Hakaton tashkiliy qo‘mita tomonidan muvofiqlashtiriladi.

2-bob. Hakatonning maqsad va vazifalari

2.1. Sog‘liqni saqlash sohasida sun‘iy intellekt asosidagi innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash.

2.2. Talabalar o‘rtasida IT va tibbiyot integratsiyasini rivojlantirish.

2.3. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni startap faoliyatiga jalb etish.

2.4. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dolzarb muammolarga texnologik yechimlar ishlab chiqish.

3-bob. Ishtirokchilar

3.1. Hakatonda OTM talabalari jamoa shaklida ishtirok etadi.

3.2. Har bir jamoa 2 nafardan 5 nafargacha ishtirokchidan iborat bo‘ladi.

3.3. Har bir OTM ichki saralash natijalariga ko‘ra belgilangan miqdordagi jamoalarni final bosqichiga tavsiya etadi.

3.4. Bir ishtirokchi faqat bitta jamoa tarkibida qatnashishi mumkin.

4-bob. Hakaton yo'nalishlari

Hakaton quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

- Tibbiy ma'lumotlarni sun'iy intellekt asosida tahlil qilish;
- Diagnostika uchun AI yechimlar;
- Telemeditsina va mobil sog'liqni saqlash platformalari;
- Sog'liqni monitoring qilish tizimlari;
- Profilaktika va kasalliklarni prognozlash tizimlari.

5-bob. Hakatonni o'tkazish tartibi

5.1. I bosqich — OTM ichki saralash

5.1.1. Har bir OTM mustaqil ravishda ichki saralash bosqichini tashkil etadi.

5.1.2. Ishtirokchilar quyidagilarni taqdim etadi:

- loyiha g'oyasi tavsifi;
- muammoning dolzarbligi;
- texnik yechim konsepsiyasi;
- minimal prototip yoki demo (mavjud bo'lsa).

5.1.3. Eng yuqori ball to'plagan jamoalar II bosqichga yo'llanma oladi.

5.2. II bosqich — Festival final bosqichi

5.2.1. Final bosqich festival doirasida 24–48 soatlik intensiv hakaton yoki tayyor loyiha asosida pitch formatida o'tkaziladi.

5.2.2. Jamoalar quyidagilarni taqdim etadi:

- ishlaydigan MVP yoki demo versiya;
- 5–7 daqiqalik pitch taqdimot;
- texnik tushuntirish (AI modeli, algoritm, arxitektura).

5.2.3. I va II bosqich uchun baholash mezonlari (100 ball):

T/r	Baholash mezonlari	Jami ball
1.	Dolzarbligi va amalga oshirish imkoniyati	20 ball
	Tibbiy yoki ijtimoiy jihatdan amalga oshirish mumkinligi: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya yoki loyihaning tahliliy va statistik ma'lumotlari aniqligi mos kelishi kerak.	
1.	Xalqaro miqyosdagi global tibbiy va ijtimoiy muammolarni aniq talqini	15-20 ball
2.	Amalga oshirish aniq, infratuzilma talablariga mos	8-14 ball
3.	Ushbu yo'nalishda tadqiqotlar mavjud, lekin qo'shimcha resurslar kerak.	0-7 ball
2.	Innovatsionlik va yangilik darajasi	25 ball

Taqdimotning yangiligi: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya yoki loyihadagi ma'lumotlar amaliyot va nazariya bilan solishtirilganda yangi va original bo'lishi kerak. Tibbiy va ijtimoiy yangilikni joriy qilish imkoniyati: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya yoki loyiha tegishli yo'nalishda dolzarb masalalarga innovatsion yechim taklif etishi lozim.		
1.	Butunlay yangi va ilg'or yechim	17-25 ball
2.	Qisman yangi tibbiy yoki ijtimoiy elementlar mavjud	8-16 ball
3.	Innovatsionlik kam yoki yo'q	0-7 ball
3.	MVP mavjudligi, shakllanganlik darajasi	25 ball
Sinovlardan o'tish: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya yoki loyiha laboratoriya yoki ijtimoiy sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lishi kerak. Texnik ko'rsatkichlar: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya yoki loyihaning texnik parametrlarini tasdiqlovchi hujjatlar, hisob-kitoblar va sinov natijalari taqdim etiladi.		
1.	Sinovlar muvaffaqiyatli o'tgan, tibbiy-ijtimoiy samaradorlik tasdiqlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar, rasmlar va videomateriallar mavjudligi.	15-20 ball
2.	Sinov natijalari qisman mavjud, qo'shimcha tajribalar talab etiladi.	8-14 ball
3.	Sinov natijalari yoki texnik ko'rsatkichlar taqdim etilmagan.	0-7 ball
4.	Ilmiy asoslanganlik va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash	10 ball
Ilmiy izlanishlarga asoslanishi: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya yoki loyiha nazariy va amaliy jihatdan ilmiy dalillar bilan asoslangan bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlanganlik aniqligi: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya yoki loyihada texnik tavsiflar, ilmiy adabiyotdan olingan ma'lumotlar, statistikalar taqdim etilishi lozim.		
1.	Barcha tavsiflar to'liq va ilmiy asoslangan. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlagan	8-10 ball
2.	Qisman asoslangan, lekin tibbiy-ijtimoiy tavsifda kamchiliklar mavjud.	5-7 ball
3.	Ilmiy dalillar yoki ilmiy adabiyotlar bilan ishlash yetarli emas.	0-4 ball
5.	Savol-javob	15 ball
Ilmiy va amaliy jihatdan ishtirokchi Tanlov komissiyasi a'zolari savollariga javob berishi kerak.		
1.	Ilmiy asoslangan to'liq	11-15 ball
2.	Ikkilanishlar mavjud, qisman to'liq	6-10 ball
3.	Javob yo'q yoki ilmiy asoslarga to'g'ri kelmagan javob	0-5 ball
6.	Prezentatsiya sifati va loyiha taqdimoti	10 ball
Tushunarlilik va aniqlik: Ilmiy tadqiqot ish, g'oya loyiha aniq, tushunarli va mantiqan asoslangan bo'lishi kerak. Prezentatsiya shakli: Vizual taqdimot sifatli, informatsion grafikalar, diagrammalar va chizmalar mavjud bo'lishi kerak.		
1.	To'liq, aniq va puxta tayyorlangan taqdimot	8-10 ball
2.	O'rtacha taqdimot, asosiy fikrlar yoritilgan	4-7 ball
3.	Yetarli darajada tayyorlanmagan yoki taqdimot yo'q	0-3 ball
Yakuniy ball		100 ball

6-bob. Hakamlar hay'ati

6.1. Hakamlar hay'ati festival tashkiloy qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan IT sohasi mutaxassislari, tibbiyot ekspertlari, startap va investitsiya vakillaridan iborat bo'ladi.

6.2. Hakamlar qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, apellyatsiya hollari bundan mustasno.

7-bob. G'oliblarni aniqlash va taqdirlash

- 7.1. Eng yuqori ball to'plagan jamoalar I, II va III o'rinlarni egallaydi.
- 7.2. Qo'shimcha nominatsiyalar ta'sis etilishi mumkin.
- 7.3. G'oliblar diplom, sertifikat va belgilangan mukofotlar bilan taqdirlanadi.

8-bob. Moliyalashtirish

- 8.1. Hakaton festival byudjeti, homiyarlar va hamkor tashkilotlar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.
- 8.2. Mukofot jamg'armasi alohida tasdiqlanadi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

- 9.1. Plagiat aniqlangan taqdirda jamoa Hakatondan chetlashtiriladi.
- 9.2. Loyiha mualliflik huquqi jamoaga tegishli bo'ladi.
- 9.3. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan masalalar tashkiliy qo'mita tomonidan hal etiladi.
- 9.4. Nizom tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.